



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

### KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUZUSIYATLARI

*Ilmiy tadqiqotchi:*

**Shamsiyeva Dilso'z Hasan qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolam shundan iboratki, dunyodagi har bir inson kichik maktab yish davrini rivojlanish jarayonida boshidan kechiradi. Bu vaqtda bolada dunyoqarash kengayadi, atrof-muhit hamda insonlar bilan yanada ko'proq aloqa o'rnata boshlaydilar. Bu yosh davrida bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Jumladan, maqolada kichik maktab yishidagi bolalarning maktabga tayyorgarlik jarayonida sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlar haqida ma'lumot yaratilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik maktab yoshi, o'qish, yetakchi faoliyat, psixik faollik, shaxsiy tayyorgarlik maktab ta'limi, intellektual tayyorgarlik, o'quvchi, harakat tayyorgarligi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadilar. Kichik maktab yoshi davrida bolalar maktabgacha yosh davridagi o'yin faoliyatidan o'qish yetakchi faoliyatga o'tadilar. Bu yosh davrida bolalar maktabga chiqasilar va ular maktabdagi qirq besh minutlik dars jarayoniga boshida moslashishlari birmuncha qiyin kechadi, asta-sekinlik bilan moslashib boradilar. Chunki ular maktabgacha yosh davrida o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynagan. Kichik maktab yosh davridagi bolalarga o'qituvchilar ham ma'lum shaxs hisoblanadi. O'qituvchi avvalo bu yosh davridagi bolalarni psixologiyasini, oilaviy sharoitni o'rganishi darkor. Sababi bu yosh davridagi bolalar ba'zilar erkatoiy, aytganini qildiruvchi, urushqoq bo'lishi, ba'zilar esa kirishimli emas agrof-muhitga moslasha olish qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan bolalar ham mavjuddir. Kichik yoshdagi o'quvchilarning xilma-xil qiziqishlari bilan bir qatorda individual qiziqishlari ham paydo bo'la boshlaydi. Ba'zi o'quvchilar rassomlikka qiziqishlari, ba'zilar musiqa, she'riyatga muhabbat qo'yadilar. Yana bir xususiyati shundaki, bu yishdagi bolalar aniq bir kasbni tanlay olmaydilar. Masalan, bir o'quvchi men shifokor bo'laman degan fikrga keladi lekin ma'lum vaqt o'tgandan so'ng fikri o'zgarib boshqa kasb egasi bo'lishni hojlab qoladi. Kichik maktab yoshidagi bolaning yana bir muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu yosh davrida bolaning tarbiyasiga chuqurroq e'tibor qaratilishi joizdir. Bu yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiyani birga olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ta'lim bo'lmasa tarbiya, tarbiya bo'lmasa ta'lim aslo bo'lmaydi.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga ham imkoniyat yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat qiladi. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan yutuqlarini boshqa tengdoshlari erishgan yutuqlari bilan solishtiradilar. Bu yoshda ular o'qituvchi rag'batlantirsa judayam-judayam ko'p xursand bo'lishadi hamda yanada yaxshiroq o'qishga intiladilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim nihoyatda muhim hisoblanadi. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishi beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela bishlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi bildirgan fikr va bergan baholarga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. Shuningdek, o'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi turlicha bo'ladi, yuqori, mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlikberiluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllanishi uchun yashil imkoniyat yaratadi. Kichik maktab davrida boshqarishdan ya'ni o'z-o'zini mustaqil tarzda boshqarishga o'tishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar ham masalan, o'yin, muloqot va mehnat kabi faoliyatlar ham o'quvchi shaxsi rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Bolaning maktabda muvafaqqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bolaning maktabda o'qishga tayyorgarligi quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1.Shaxsiy tayyorgarlik. Motivation sohaning rivojlanganlik darajasi. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bo'lishga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish-o'quvchi bo'lish. 2.Intellektual tayyorgarlik. Tevarak-atrofdan mo'ljal olish, bilimlar zaxirasining mavjudligi. Idrok vako'rgazmali-obrazli tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darajasi- narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi. Nutqning ma'lum darajada rivojlanganligi; ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajarish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalarda taqqoslay olish, tahlil etadi olish, yetarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. 3.Harakat tayyorgarligi: -mayda motorika; -katta harakatlarni amalga oshirish ya'ni



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

qo'l, oyoq, tana kabilar. 4.o'quv faoliyatiga tayyorgarlik: -kattalarni diqqat bilan eshita olish va uning ko'tsatmalarini aniq bajarish; -tolshiriqni mustaqil bajarish; -chalg'ituvchi omillarga e'tibor bermasdan topshiriqni bajarishga kirishishi kabilardir [1;273-274]. Psixik faollik-bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir.

Maktab yoshidagi kichik bolalarning tafakkuri hali ham amaliy, aniq tafakkur bo'ladi, lekin ta'lim jarayonida bunday bolalarning aniq tafakkuri, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aniq tafakkuriga qaraganda, murakkabroq va mazmunliroq bo'lib qoladi, ulardagi fikrlash jarayonlarining hammasi takomillasha boradi. Maktabda o'quvchi bola tobora murakkabroq narsalarni va o'zi idrok qilayotgan narsalarni hamda hodisalarnigina emas, balki, shu bilan birga tasavvur qilayotgan narsalar va hodisalarni ham bir-biridan taqqoslash, analiz va sintez qilishni o'rganib oladi. Boshlang'ich maktabning o'zidayoq bolalar birinchi sinfdan boshlab ko'p miqdorda xilma-xil tushunchalarni-grammatikaga, arifmetika, tibbiyotga doir va ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni o'zlashtirib oladilar. O'quvchilar o'zlashtirib oladigan tushunchilar doirasi asosan, har qaysi sinf uchun har qaysi fan yuxasidan tuzilgan o'quv dasturi bilan belgilanadi. [2;225]

Kichik maktab yosh davridagi bolalar o'qishning mohiyat va mazmunini hamda vazifasini tushunmaydilar, shuning uchun umumiy tarzda hamma maktabga borishi kerak, deb o'yladilar. Biz bilamizki, o'quvchi o'qish zarur ekanligini anglab yetmaydilar, ammo kattalar ko'rsatmalariga tayangan holda tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadilar.

Psixolog L.S.Slavina tadqiqotiga ko'ra, boshlang'ich sinflarda bilish faoliyati yetarli yetarli darajada shakllanib bo'lmagan aqliy jihatdan nomustaqil o'quvchilar mavjuddir. Olimning fikricha, o'qish va o'yin faoliyatlarida ularni fikr va mulohaza yuritishga o'rgata borish natijasida muvaqqat turg'unlikning oldini olish mumkin. Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining dastlabki natijalari uning boshqa materiallarni egallash sari yetaklaydi. Uning o'qish faoliyatidagi birinchi mehnat faoliyati maxsus shodlik, quvonch va amaliy his-tuyg'usini keltirib chiqaradi. Hatto ayrim o'quvchilar u yoki bu obyekt, mavzuni bir necha marotaba o'qishni ham yoqtiradilar. O'qish faoliyatiga nisbatan qiziqish, moyillik keyinchalik predmetning mazmuniga qiziqishni vujudga keltiradi, balkim bilim olish ehtiyojini tug'diradi, qolaversa unda o'qish motivlarini tarkib topdiradi. [3;117]

Bu yosh davridagi bolalarning xususiyatlaridan yana bittasi-bu o'qituvchisi nisbatan ishonch va obro' ya'ni hurmat tuyg'usining mavjudligidir. Bola tasavvurida o'qituvchi aql idrokli, ziyrakli, sezgir, mehribon hatto donishmand bo'lib gavdalanadi. Shu sababli o'qituvchi bolaga ta'limiy, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

imkoniyati katta hisoblanadi. O'quvchilar o'qituvchini ezgu niyati, orzu istagi, ajoyib va g'aroyib his-tuyg'ularni amalga oshiruvchi insonni tasavvur qiladilar. O'qituvchining har bir so'zini qonun deb qabul qiladilar va bu yo'lda o'zlarini haq deb hisoblaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurining rivojlanushini yirik psixolog L.S.Vigotskiy tushunchalarning shakllanishi hamda nutqning o'sishi bilan uzviy bog'liq holda o'rgangan. Shuning uchun u ajnabiy psixologlarning birinchi navbatda J.Piajening egotsentrik konsepsiyasini qattiq tanqid qilib, tafakkurni genetik metod yordamida o'rganishni tavsiya qiladi. L.S.Vigotskiy psixologiya faniga inson kamolotining „ Eng yaqin taroqqiyot zonasi" deb nomlangan tushunchalarni olib kiradi. Uning birinchisi o'qituvchining mustaqil faoliyatida namoyon bo'ladi. [3;119]

Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari buyumlarning o'ziga to'g'ridan-to'g'ri tortuvchi tashqi belgilarga tayanib fikr yuritadi boshlaydilar. Masalan, „ Quyosh yoritadi, isitadi", „ momaqaldiroq guldiraydi, chaqmoq chaqadi", „ sigir sut beradi" deb fikr yuritadilar. Uchinchi va to'rtinchi sinf o'quvchilarda tarixiy mavzularga oid kitoblarni o'qish jarayonida ularda soat, hafta, oy, yil, asr, ming tillar, uzoq o'tmish kabi tushunchalar vujudga kela boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda emotsiyalik kuchli bo'lib, diqqatga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Agar o'qish mavzu o'zining yorqinligi, obrazlilik va jonlilik bilan ajralib tursa diqqat bilan ancha kuchli namoyon bo'ladi. Emotsiyalik kuchli bo'lganligi sababli ham bu yosh davridagi bolalar juda tez fursatlarda xafa bo'lishadi, yig'lashadi yoki kayfiyatlari ko'tarilib cursand bo'lishadi. Emotsionallik bir tomondan bola tafakkurining ham tanqidiy xarakteriga ega emasligi bo'lsa, ikkinchi tomondan tafakkur rivojlanishining xali uncha yuqori darajada emasligidir. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari joizdir. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi yoki uni chiroyli yoxa olmasligi, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatleri, layoqatlari, muvafaqqiyat va muvafaqqiyatsizliklarini anglash, o'z-o'zini anglashi kabi xislarning yuzaga kelishidir. Bolaga atrof-muhitdagi insonlar ham ta'limi va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me'yor va qoidalar esa bolalar axloqini boshqaradi.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Bolalar maktabga chiqish vaqtida psixologik rivojlanish darajasiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlar paydo bo'ladi. Bu xususiyatlar shundan iboratki, bolalar birbirlaridan intellektual-axloqiy jihatdan farqlanadilar. Ular bir xil ko'rsatma va psixodiagnostik testlar mos keladi. Ayrim rivojlanish past bo'lganlariga bog'cha yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan testlar to'g'ri keladi. Asosan, o'z-o'zini verbal baholash, tashqi muhitni ongli baholash holatidagi testlarda bu aniq bilinadi. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi bolalar bilan u yoki bu psixodiagnostik testni o'tkazishdan avval bolaning real psixologik rivojlanishiga mos keluvchi testni tanlab olish kerak, 6-7 yoshdagi bolalarning maktab tayyorgarligiga oid empirik ma'lumotlarga ko'ra, 50 foizdan 80 foizgacha bolalar u yoki bu jihatdan boshlang'ich ta'lim dasturini o'zlashtirishga tayyor emas. Ko'p bolalar maktabga chiqishga tayyor bo'lsalar-da, aqlan 5-6 yosh darajasida rivojlangan bo'ladilar. Agar bunday bolaga uning uchun murakkab va qiziqarsiz psixologik testlar berilsa, bu testlar rivojlangan aql, diqqat-e'tibor va xotira talab qilganligi sababli, ular testni bajara olmaydilar. Bu intellektual qobiliyatning yo'qligi emas, shaxsiy psixologik rivojlanish yetarli bo'lmaganligi sababli sodir bo'ladi. Agar vazifa o'yin sifatida qiziqarli qilib berilsa, test natijasi yuqori bo'lishi mumkin. Mazkur holatlar bolalar psixodiagnostikasida amaliy psixologlar tomonidan hisobga olinishi kerak. 3-4 sinf o'quvchilari uchun qiziqarli va kattalarga mo'ljallangan testlar to'g'ri kelishi mumkin. Test o'tkazishda faollik, ruhiy qiziqish yuqori bo'lsa natija ham yuqori bo'ladi. Agar kattalar test vaqtida ongli ravishda irodasini ishga solib o'zini boshqara olsalar, kichik yoshdagi maktab bolalari hatto o'smirlar ham buni bajara olmaydilar. Kattalar uchun mo'ljallangan testlarni kichik maktab yoshidagi bolalarga qo'llashda ma'lum cheklashlar mavjud. Bu cheklanishlar shaxslararo munosabatlar, shaxs va idrokni tahlil qilishga mo'ljallangan testlar tegishlidir. Kattalar uchun qo'llanilayotgan intellektual ya'ni aqliy testlarning ko'pchiligi so'z-mantiqiy tafakkurning rivojlanish darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu xususiyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarda taraqqiy etib, o'smirlik davriga kelib rivojlanish tugallanadi. [4;81-82]

Kichik maktab yoshidagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar ta'sirchan va emotsional bo'ladilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'zlarining har bir faoliyat natijalariga baho bera oladilar. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. Kichik maktab yoshi davrida bolaga maktab, oila va jamiyat tarbiyasi birgalikda namoyon bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga shunday o'xshatish mumkinki ular endi unayotgan novda kabidir. Ularni to'g'ri holda yoki qiyshiq holda o'stirish esa oila, maktab hamda atrof-muhitdagi ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Bolani mustaqillik xususiyatining



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

shakllanishi asosan kattalarga bog'liqdir. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish bo'lib qoladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Z.T.Nishonova; N.G.Kamilova; D.U.Abdullayeva; M.X.Xolinazarova. „ Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. " „ O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti 2018-yil.

2.P.I.Ivanov; M.E.Zufarova. „ Umumiy psixologiya". „ O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti Toahkent 2024-yil.

3.Ergash G‘oziyev. „ Ontogenez psixologiyasi". Toshkent „ NIF MSh" 2020-yil.

4.Z.Nishonova; Z.Qurbonova; S.Abdiev. „ Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya". „ Tafakkur-Bo‘stoni" Toshkent 2011-yil.